



## Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari <sup>1</sup>

2026- yil yanvar-mart


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026- yil yanvar-mart oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **19 767,9** mlrd so'mni tashkil etdi. 2025- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,1** % ni tashkil etdi.

*Ma'lumot uchun: 2025- yil yanvar-mart oylarida xizmatlar hajmi 16 242,6 mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa 110,7 % ni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8 441,8** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **73,9** % ini tashkil etdi.

<sup>1</sup> 2025- yil yanvar-mart oyi hajmi va 2026- yil yanvar-mart oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



## II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari  
2026- yil yanvar-mart

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>19 767,9</b>	<b>100,0</b>	<b>115,1</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	439,9	2,2	114,6
Olmaliq	913,7	4,6	115,1
Angren	839,5	4,2	114,4
Bekobod	582,2	2,9	113,9
Ohangaron	289,7	1,5	114,9
Chirchiq	1 025,7	5,2	114,7
Yangiyo'l	558,9	2,8	114,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	338,9	1,7	114,6
Ohangaron	195,5	1,0	113,6
Bekobod	371,2	1,9	114,0
Bo'stonliq	831,7	4,2	115,5
Bo'ka	360,3	1,8	114,0
Quyichirchiq	289,3	1,5	116,3
Zangiota	1 285,5	6,5	115,4
Yuqori Chirchiq	553,2	2,8	116,2
Qibray	1 066,1	5,4	114,0
Parkent	504,5	2,6	114,2
Piskent	202,6	1,0	114,1
O'rta Chirchiq	437,4	2,2	115,1
Chinoz	388,4	2,0	115,6
Yangiyo'l	599,6	3,1	114,2
Toshkent	767,7	3,9	114,5
Yashirin iqtisodiyot	6 926,4	35,0	116,6

### Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

Toshkent viloyatida eng yuqori ulushga ega Zangiota (6,5%), Qibray (5,4%) tumanlari hamda Chirchiq (6,0%), Olmaliq (4,6%) shaharlarida tovar aylanma ko'pligi bilan izohlanadi, ular hajm bo'yicha viloyatning eng salmoqli o'ringa ega hududlaridandir. Shuningdek, aholining yuqori zichligi transport infratuzilmasiga, savdoga, ta'limga, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabi turli xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Bundan tashqari, rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega bo'lib, u o'z o'rnida xizmatlar sohasini tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shmoqda.



Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi aholi jon boshi ko'rsatkichlari  
2026- yil yanvar-mart

	2026- yil yanvar-mart, ming so'm	2025- yil yanvar-mart, ming so'm	O'sish sur'ati, %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>6 240,6</b>	<b>5 214,3</b>	<b>113,2</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	7 469,1	6 316,8	112,3
Olmaliq	6 043,0	5 052,1	113,6
Angren	4 451,3	3 751,7	112,7
Bekobod	5 420,9	4 570,3	112,6
Ohangaron	6 769,2	5 673,9	113,3
Chirchiq	5 743,2	4 828,0	112,9
Yangiyo'l	6 273,1	5 302,1	112,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	2 929,2	2 459,0	113,1
Ohangaron	1 703,0	1 443,4	112,0
Bekobod	2 167,1	1 833,1	112,2
Bo'stonliq	4 641,1	3 835,8	114,9
Bo'ka	2 592,1	2 192,2	112,3
Quyichirchiq	2 419,3	2 004,2	114,6
Zangiota	7 090,5	6 003,8	112,1
Yuqorichirchiq	3 833,8	3 182,2	114,4
Qibray	5 847,9	4 955,7	112,0
Parkent	2 721,3	2 300,4	112,3
Piskent	1 927,7	1 629,3	112,3
O'rta Chirchiq	3 052,3	2 563,5	113,1
Chinoz	2 575,3	2 150,0	113,7
Yangiyo'l	2 879,8	2 437,8	112,2
Toshkent	3 643,5	3 107,5	111,3

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari 2026- yilning- yanvar-mart oyida 2025- yilning mos davri (1026,3 ming so'm) ga nisbatan 113,2 % ga o'sib, 6 240,6 ming so'mni tashkil etdi.



### III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27- fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida asosiy xizmat turlaridan ba'zilari, jumladan moliyaviy xizmatlar 44,7 % ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga qo'shgan hissasi 4,2 band), savdo xizmatlari 19,0 % ga (hissasi 6,1 band), transport xizmatlari 8,3 % ga (hissasi 1,3 band), yashash va ovqatlanish xizmatlari 7,0 % ga (hissasi 1,1 band), boshqa xizmatlar 23,9 % ga (hissasi 1,1 % band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 14,4 % ga (hissasi 0,5 band), ijara xizmatlari 6,3 % ga (hissasi 0,1 band), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 2,0 % ga (hissasi 0,04 band), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar 11,2 % ga (hissasi 0,2 band), shaxsiy xizmatlar 10,9 % ga (hissasi 0,2 band), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 9,3 % ga (hissasi 0,2 band), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar 79,4 % ga (hissasi -0,2 band), ta'lim sohasidagi xizmatlar 11,4 % ga (hissasi 0,3 band) o'sdi.

#### Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-mart)


	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2025- y.	2026- y.	
<b>Xizmatlar- jami</b>	<b>16 242,6</b>	<b>19 767,9</b>	<b>115,1</b>
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	536,7	672,1	114,4
Moliyaviy xizmatlar	1 321,8	1 953,2	144,7
Transport xizmatlari	2 962,1	3 392,7	108,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmati</i>	2 673,4	3 056,3	107,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2 797,3	3 253,8	107,0
Savdo xizmatlari	5 355,1	6 716,1	119,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	433,1	489,6	109,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	412,0	466,7	111,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	443,5	477,0	102,0
Ijara xizmatlari	340,7	386,8	106,3
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	319,7	371,7	111,2
Shaxsiy xizmatlar	382,4	462,2	110,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar	221,2	187,7	79,4
Boshqa xizmatlar	717,0	938,3	123,9

**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

2026- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari 34,0 %, transport xizmatlari 17,2 %, moliyaviy xizmatlari 9,9 %, yashash va ovqatlanish xizmatlar 16,5 %, boshqa xizmatlari 4,7 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 3,4 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 2,4 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 2,5 %, shaxsiy xizmatlar 2,3 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar 2,4 %, ijara xizmatlari 2,0 %, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar 1,9 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar 0,9 % ulushni tashkil etdi.

*Taqqoslash uchun: 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida savdo xizmatlari 33,0 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari 17,2 %, transport xizmatlari 18,2 %, moliyaviy xizmatlar 8,1 %, boshqa xizmatlar 4,4 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 3,3 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 2,7 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 2,7 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar 2,5 %, shaxsiy xizmatlar 2,4 %, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar 2,0 %, ijara xizmatlari 2,1 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar 1,4 % ulushni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi  
2026- yil yanvar-mart % da




2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida **aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **3,8 %** ni tashkil etdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan esa **7,4 %** ga o'sdi.

**Transport xizmatlarida omborxon va yordamchi transport xizmatlari (5,7 %)** hamda **pochta va kurerlik xizmatlari (4,1 %)** da yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani quruqlikdagi taranport xizmatlari va quvurlarni tashish xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **sug'urta xizmatlarida** o'sish kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan hajmi 68,6 mlrd so'mga yoki **16,8 %** ga o'sishi kuzatildi.

Sug'urta xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



**Savdo xizmatlari** borasida chakana savdo xizmatlari ushbu tur hajmining **39,6 %** ulushini tashkil etayotgan bo'lsa, ulgurji savdo xizmatlari **45,5 %** ini qamrab olmoqda.

O'zbekistonda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi. Yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **16,5 %** ni tashkil etdi. 2026-yilning yanvar-mart oyida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **15,7 %** ni tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida **ta'lim sohasidagi xizmatlarning** ulushi jami bozor xizmatlarida **2,4 %** bo'lib, 2025- yil mos davriga nisbatan **13,3 %** ga o'sdi.



#### **IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar**

##### **Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:**

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

---

**Chiqarish uchun javobgar:**  
Xizmatlar va savdo sohasi  
statistikasi bo'limi

**Manzil:** 100198, Toshkent viloyati,  
Nurafshon shahar, Toshkent yo'li  
ko'chasi, 90- uy  
**Pochta:** toshvilstat@exat.uz  
**Tel.:** 71-203-45-00 (45-90)